

RAMZLAR ORTIDAGI HAQIQAT: NAZAR ESHONQUL HIKOYALARINING FALSAFIY VA ESTETIK TALQINI

Ablaqulova Zulfiya Mahmud qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universitrtining

tarjima nazariyasi va amaliyoti

fakulteti 4-bosqich talabasi.

zulfiyaablaqulova8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek hikoyachiligida inson ruhiyatini tahlil qilish, ichki kechinmalarni badiiy vositalar orqali ifodalash masalalari Nazar Eshonqul ijodi misolida yoritilgan. Adibning “Maymun yetaklagan odam”, “Bahovuddinning iti”, “Qo'l”, “Tobut”, “Evolutsiya” kabi hikoyalari asosida yozuvchining falsafiy va estetik qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada Nazar Eshonqul asarlarida an'anaviy syujet chizig'idan chekinish, ichki monolog, tafakkur oqimi, psixologik tahlil, ramz va timsollar tizimi orqali inson ongining murakkabligi ochib berilgani ko'rsatiladi. Shuningdek, yozuvchi ijodida G'arb modernizmi unsurlari milliy adabiy tafakkur bilan uyg'unlashgani, bu esa o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga olib chiqqani ta'kidlanadi. Tadqiqot natijasida Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiylilik va falsafiylikning uyg'unligi, milliylik va zamonaviylikning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *zamonaviy o'zbek hikoyachiligi, falsafiy tahlil, estetik yondashuv, ruhiy kechinma, ichki monolog, tafakkur oqimi, modernizm, ramz, timsol, badiiy tafakkur.*

Bugungi davrda inson tafakkuri jadallik bilan yangilanmoqda. Bu jarayonda kishilar ongiga yangi g'oya va qarashlarni singdirish, ularning ichki dunyosiga ta'sir o'tkazish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqsadga erishishda adabiyotning, xususan, hikoya janrining o'rni beqiyosdir. Hikoya janri o'zining ixchamligi, badiiy ifoda vositalarining aniqligi, hayotiy holatlarni teran ruhiy tafakkur

orqali yoritish imkoniyati bilan ajralib turadi. Bu esa uni zamonaviy o'quvchi tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazuvchi kuchli vositaga aylantiradi. Ayniqsa, bugungi o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos uslub va badiiy qarashlarga ega bo'lgan ijodkorlarning faoliyati diqqatga sazovordir. Ularning asarlarida milliylik va zamonaviylik uyg'un holda namoyon bo'lib, G'arb adabiyotida, ayniqsa modernistik oqimlarda kuzatiladigan estetik tamoyillar bilan hamohang yondashuvlar shakllanib bormoqda. Hikoyalari nafaqat o'zbek hikoyachiligining yangi bosqichini belgilaydi, balki butun adabiy tafakkurimizda yangi yo'nalishning shakllanishidan darak beradi. Bu hikoyalarda yozuvchining badiiy tafakkur doirasi keng, uning tasvir uslubi esa zamonaviy adabiyotga xos tarzda noan'anaviylik bilan ajralib turadi. Asarlardagi voqealar ko'pincha an'anaviy syujet chizig'idan chekinadi, sabab-oqibat munosabatlari faqat tashqi hodisalar orqali emas, balki ichki kechinmalar, xotiralar, ong osti harakatlari vositasida ifodalanadi. Obrazlar esa bir tomonlama emas, balki murakkab psixologik tahlil orqali ochiladi. Qahramonlarning ichki dunyosi, ularning ichki ziddiyatlari, ijtimoiy va ma'naviy iztiroblari, ruhiy tushkunliklari yoki ko'tarinkilik holatlari badiiy tasvirning markazida turadi. Eng ahamiyatli jihatlardan biri shuki, ushbu hikoyalarda voqealar ko'pincha birinchi shaxs – "men" tilidan hikoya qilinadi. Bu uslub kitobxonni qahramonning ichki olamiga yaqinlashtiradi, uni bir vaqtning o'zida guvoh va hamdardga aylantiradi. Qahramonning o'z-o'zini kuzatishi, hayoti ustidan fikr yuritishi, ijtimoiy voqelikka munosabati, pushaymonligi yoki o'z xatolarini anglash holatlari o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Shu tarzda adib asarni nafaqat badiiy obrazlar vositasida, balki falsafiy fikrlar orqali ham boyitadi. Bu jihatlar o'zbek adabiyotida ayniqsa mustaqillik yillarida rivoj topgan o'ziga xos badiiy-estetik tendensiyalarni ifodalaydi. Yangi adabiy tafakkur, inson shaxsiyati va uning ruhiy olamiga qaratilgan chuqur e'tibor, an'anaviy syujet qurilishidan chekinish, erkin g'oya oqimi va zamonaviy tasvir uslublarining paydo bo'lishi – bularning barchasi zamonaviy o'zbek hikoyachiligini global adabiy jarayonlarga yaqinlashtiradi. Xususan, G'arb modernizmining ayrim estetik mezonlari – masalan, real vaqt va makondan voz kechish, tafakkur oqimi, subyektiv voqelik, ichki monologlar va ruhiy

tahlil – o‘zbek hikoyalariga o‘ziga xos tarzda singdirilmoqda. Ammo bu taqlid emas, balki milliy adabiy maktab asosida o‘zlashtirilgan, o‘z muhitiga moslashtirilgan yaratmacha izlanishdir. Zamonaviy o‘zbek hikoyalarini o‘rganish orqali biz nafaqat ularning badiiy mazmuni va shakliy ustunliklarini anglaymiz, balki u orqali o‘zbek nasri va umuman adabiyotining bugungi davrdagi ruhiy-falsafiy izlanishlari, g‘oya doirasi va estetik yo‘nalishlarini ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bu esa adabiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, adabiy tafakkur doirasi ham kengaya bordi. An‘anaviy realizm asosida qurilgan hikoya va romanlarda ko‘proq voqealar ketma-ketligi, ijtimoiy muhit tasviri, qahramon xarakteri orqali fikr berish uslubi ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, bu davr modernistik yo‘nalishdagi asarlarda ichki kechinmalar, ruhiy ziddiyatlar, onggacha va ong osti hodisalari, insoniyatning falsafiy izlanishlari markazga chiqdi. Bunday yondashuv kitobxon bilan yozuvchi o‘rtasidagi muloqot shaklini ham o‘zgartirdi. Badiiy so‘z orqali inson ongining chuqur qatlamlarini yoritishga intilish, voqelikni ichki nuqtai nazardan tasvirlash kabi jihatlar nasrimizning yangi ufqlarini ochdi. Bugungi o‘zbek adabiyotida shaxsiy uslub, badiiy mahorat va estetik izlanishlari bilan ajralib turadigan yozuvchilar orasida Nazar Eshonqul alohida e‘tiborga loyiq ijodkor sifatida tan olinadi. U faqatgina yozuvchi emas, balki o‘z davrining adabiy tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan, milliy ruhni zamonaviy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtira olgan yirik adabiy shaxsdir. Nazar Eshonqul jahon adabiyotining eng ilg‘or namunalari bilan puxta tanishgan, ulardan ilhom olgan holda, o‘z ijodini chuqurlik, falsafiylik va badiiy izchillik asosida yo‘lga qo‘ygan adibdir. U hikoyachilikka oddiy shakl sifatida emas, balki inson ruhiyati, ichki ziddiyatlari va tafakkur manzaralarini yorituvchi kuchli badiiy vosita sifatida qaraydi. Nazar Eshonqul uchun hikoya yozish — bu voqeani hikoya qilish emas, balki fikr va tuyg‘ularni, ruh va ongni san‘at darajasida ifoda etishdir. Shu bois uning hikoyalari nafaqat syujet va tasvirga boy, balki murakkab falsafiy qatlamlarga ega, mushohada va ruhiy izlanishga chorlovchi asarlar sifatida ajralib turadi. E‘tiborlisi shundaki, Nazar Eshonqulning adabiyotga bo‘lgan munosabati oddiy kasb sifatida emas, balki ma‘naviy-madaniy mas‘uliyat, ichki ehtiyoj sifatida qaraladi. U ijod orqali nafaqat

hayotni tasvirlaydi, balki uni anglashga, tushunishga, ruhiy teranliklar orqali mushohada qilishga chorlaydi. Shuning uchun ham uning asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotida estetik fikr va ruhiy izlanishlar uyg'unligining yorqin namunalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Nazar Eshonqulning "Tobut" hikoyasi o'zbek nasrida o'zgacha badiiy yondashuv va ramzlar tizimi orqali ajralib turadigan asarlardan biridir. Bu hikoya markazlashgan voqelik atrofida shakllanib, kitobxonni darhol o'ziga tortadigan ichki ziddiyat va noaniqlik muhitini yaratadi. Voqea markazida insonlar yashayotgan, ammo aslida ma'nan allaqachon so'nib bo'lgan bir jamiyat turadi. Hikoya boshidanoq g'amgin, hayotsiz, sokin manzara bilan qarshi oladi: bu joyda hayotiylik emas, kutish va befarqlik hukm suradi. Vujudga chuqur singib ketgan jimjitlik esa oddiy sukunat emas, balki ich-ichidan chirib borayotgan ijtimoiy tuzumning timsolidir. Asarning eng kuchli ramzlaridan biri – atrofni qamrab olgan og'ir va yoqimsiz hid. Bu tasvir oddiy muhit tavsifi bo'lishdan ko'ra, ko'proq jamiyatga singib ketgan botiniy illatlar – riyokorlik, adolatsizlik, axloqiy tanazzulning badiiy belgisi sifatida xizmat qiladi. Hikoyadagi bu muhit – tiriklarning o'liklardan farqi qolmagan, ma'naviy halokatga yuz tutgan makon sifatida chiziladi. Voqealar ketma-ketligida jamiyatga tashrif buyurgan tashqi nazorat vakillari – hodisalar rivojining bosqichma-bosqich ochilishiga turtki beradi. Yangi kelganlar boshida bu makonni jozibali deb qabul qilishadi: tashqi jimjimadorlik, yasama tartib, maqtovga sazovor ko'rinadigan ko'zbo'yamachilik ularda ijobiy taassurot uyg'otadi. Ammo vaqt o'tishi bilan bu maskanning ichki mohiyati – yolg'on ustiga qurilgan, ma'naviy o'liklardan iborat jamiyat ekani ayon bo'ladi. Bu yerdagi hayot chindan ham hayotmi? Yozuvchi bu savolni hikoya davomida ohangsiz, ammo kuchli badiiy ramzlar orqali berib boradi. Shaharda tarqalgan botiniy chirish insoniyat qadriyatlarining yo'qolishiga ham ishora qiladi. Bu yerda rostgo'ylik, halollik, vijdon, ilm-ma'rifat kabi tushunchalar qadrsizlanib, o'z o'rnini maqtanchoqlik, poraxo'rlik, ikkiyuzlamachilik va johillikka bo'shatib bergan. Yozuvchi esa jamiyatni yashovchanligini saqlab qolish uchun ogohlik, hushyorlik va ongli qarorlar zarurligini eslatadi. "Tobut" hikoyasi bu ma'noda ulkan ramziy yukni ko'taradi: u nafaqat ijtimoiy

illatlarni fosh etadi, balki ularning ildiziga qarab, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ruhiy va axloqiy sog'lomlikni tiklash zarurligini ko'rsatadi. Yozuvchining bu asari o'quvchini befarq qoldirmaydi – u unda yashirin, ammo kuchli ogohlantiruv bor: agar insonlar o'zligini unutsa, yurakdan emas, tashqi ko'rsatkichlarga ergashsa, jamiyat tobora o'z-o'zini yo'q qiluvchi tuzumga aylanadi. Asarda hayotining yo'nalishini yo'qotgan odamlar surati orqali yozuvchi ruhiy inqirozga yuz tutgan jamiyatning ichki qulash jarayonini mohirlik bilan chizadi. Bu odamlar go'yoki tirik, ammo ma'nau allaqachon nobud bo'lgan – ularning hayoti harakatda, ammo maqsadsiz, mavjudlikda, ammo mohiyatsiz. Shu tarzda “Tobut” hikoyasi faqat bir makon yoki davrga doir emas, balki umumiy insoniy holatga, ma'naviy uyg'onishga da'vat etuvchi kuchli badiiy asar sifatida namoyon bo'ladi.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasida maymun obrazining tasvirlanishi odamlarning o'z erkinliklarini yo'qotib, boshqalariga xizmat qilishga majbur bo'lishini ramziy ifodalaydi. Bu, shuningdek, insonlarning o'z shaxsiyatini va fikrini yo'qotib, ijtimoiy tizimlarga moslashib ketishining salbiy oqibatlarini ko'rsatadi. Maymunning tasvirlangan holati insonning o'ziga xos shaxsiy fikri va erkinligi bo'lmagan, qo'llab-quvvatlagan tizimga tobelikni bildiradi. Hikoyadagi maymun, o'zining tabiiy xulq-atvori bilan, insonning bu kabi vaziyatdagi holatini ifodalaydi, chunki ular hayotini boshqarishning o'rniga boshqa biror kuchga xizmat qilishni tanlaydi. Shu bilan birga, insonning maymundan tarqalishi to'g'risidagi xatoliklarni va insonning yuksak imkoniyatlarini ifodalaydi. “Evolutsiya” hikoyasida esa qo'zichoq obrazida insonlarning ikki yo'li ko'rsatilgan: birinchisi kurashish va halok bo'lish, ikkinchisi esa istilochilarga qarshi bosh egib xizmat qilish. Qahramon o'zi uchun ikkinchi yo'lni tanlab, o'zining past darajadagi holatini tasvirlaydi. Bu, o'z navbatida, insonning tabiiy holatda o'zini his qilish va o'zgarishga, turmushning har bir qismiga moslashishga intilishi haqida. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida ranglar ham ma'nolarni o'zida jamlaydi. Hikoyaning boshida tasvirlangan qora, mavhum va xira ranglar cholning hayotidagi maqsadsizlikni va tizimga xizmat qilishning ziddiyatini ko'rsatadi. Hikoya oxirida ranglarning yorqinlashuvi esa cholning hayotini tahlil qilib, qilingan

xatolarni anglaganidan keyingi to'g'rilanish jarayonini ifodalaydi. Bu o'zgarish insonning ichki ruhiy kechinmalaridagi anglashuvning o'zgarishini, o'zgarish bilan birga qayta tiklanishni bildiradi. "Evolutsiya" va "Tobut" kabi hikoyalarda keltirilgan qizil rang esa, siyosiy tuzumning bayrog'ini, uning salbiy ta'sirlarini va bu tuzum natijasida odamlarning hayotida yuzaga kelgan qon to'kilishlarini ramziy tarzda ko'rsatadi. Ranglar orqali yozuvchi o'sha davr siyosatining va uning yuksak inqirozlarining ramzini aks ettiradi. Yozuvchi ko'p hikoyalarda xushbo'y bo'lmagan, chirkin va yomon hidlarni tasvirlaydi. Bu hidlar, bir tomondan, sovet tuzumining kelib chiqishi va insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan ta'sirini bildiradi. Ikkinchi tomondan, bu hidlar insonning o'zligini, e'tiqodini va shaxsiyatini yo'qotishining aksidir. Ular o'z ruhiyatida hayotdan ajralib, ichki iztiroblarini yashirishga majbur bo'lgan insonlarning kayfiyatini ifodalaydi. Bu tasvirlar orqali yozuvchi jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarni, inson ruhiyatining og'ir holatini va shaxsiy inqirozlarni chuqur tasvirlaydi.

Yozuvchining "Qo'l" nomli hikoyasi o'zining g'ayritabiiy syujeti va chuqur ramziy ma'nolari bilan zamonaviy o'zbek adabiyotida o'zgacha o'rin egallaydi. Hikoya ilk nigohda oddiy bir voqelik asosida qurilgandek tuyulsa-da, asar davomida yuzaga chiqadigan satr orasi mazmunlar, kinoyali ishoralar va ijtimoiy muammolar uning chinakam badiiy-falsafiy asarga aylanishiga sabab bo'ladi. Asarda butun voqealar markazida noma'lum manbadan "paydo bo'lgan" bir qo'l tasviri turadi. Bu qo'l nimaning belgisi? Kimga tegishli? Qayerdan chiqqan? Bu kabi savollarga hikoya davomida hech kim aniq javob bera olmaydi. Biroq shu noaniq "detal" jamiyatdagi katta muammoni – mas'uliyatsizlik, byurokratiya va adolatsizlikni ochib beruvchi kalitga aylanadi. Hikoya qahramoni – oddiy bir tandirchi. U o'z rizqini halol mehnat bilan topishga urinayotgan, bosiq va samimiy inson sifatida tasvirlanadi. Ammo tasodifan sodir bo'lgan g'alati holat tufayli uning xonadoni birdaniga "muammo markazi"ga aylantiriladi. Odatda tinch yashayotgan odam boshiga tushgan g'ayritabiiy holat uni izdan chiqaradi, ammo bu yerda muammo bir qo'l bilan chegaralanmaydi – u bilan birga muammolar butun jamiyat tizimini fosh etadi. Shu sirli "qo'l" ortidan

boshlangan tekshiruvlar, savol-javoblar, yozma bayonotlar, chiqim va tartiblar aslida bugungi jamiyatdagi absurd hodisalar, yashirin kuchlarning shaxsiy erkinlik ustidan nazorat oʻrnatishga urinayotgan jarayonlarini ifodalaydi. Goʻyoki hech narsani qilmagan odamga ayb qoʻyiladi, u oʻz aybsizligini isbotlash uchun oʻz mol-mulkini, vaqtini, tinchini yoʻqotadi – lekin baribir hech kim haqiqatni tan olmaydi. Bu – chinakam birokrtatik zulm ramzi. Asarning eng kuchli jihatlaridan biri shundaki, yozuvchi qoʻl obrazini shunchaki bir aʼzoga emas, balki butun boshli ijtimoiy sistemaning timsoliga aylantiradi. Bu “qoʻl” kimdandir ustun, kimningdir boshini silaydi, kimnidir jazolaydi, istasa tortib oladi, istasa beozor koʻrinadi. Bu noaniq, ammo kuchli kuch jamiyatdagi tengsizlik va biryoqlamalilikni fosh etadi. Nazar Eshonqul bu hikoyada real hayotdagi vaziyatlarni kulgili-yu achinarli shaklda, kinoyali uslubda koʻrsatadi. Asarda hech kim aybdor emasdek tuyuladi, ammo hamma jazolanuvchi. Aslida bu holat jamiyatda noaniq tizimlarning, qonuniy koʻrinishga ega, ammo adolatdan yiroq amaliyotlarning qanday ishlashini koʻrsatadi. Oddiy inson esa bu tizimda oʻz haqiqatini isbotlashda doimiy yoʻqotishga mahkum. “Qoʻl” hikoyasi oʻzbek nasrida kamyob boʻlgan ramziy va kinoyali badiiy ifodaning yorqin namunasi boʻlib, u orqali yozuvchi jamiyatda koʻrinmas kuchlar, sust nazorat va odamlarga boʻlgan ishonchsizlik muhitini fosh etadi. Asar nafaqat kulgu uygʻotadi, balki chuqur oʻyga chorlaydi: jamiyatda shunchaki “qoʻl” paydo boʻlishi emas, uni tan olmaydi.

“Bahovuddinning iti” hikoyasi zamonaviy adabiyotimizda ramziy obrazlar orqali insonning ichki oʻzgarishini yoritishda alohida oʻrin tutadi. Hikoya syujeti odatiy voqelik asosida qurilgandek tuyulsa-da, unda metaforik tasvirlar va timsollar orqali chuqur maʼnaviy mazmun mujassam etilgan. Asar voqealari oxiriga kelib keskin burilish oladi – hikoya qahramoni, rejissor, oʻz hayotiy yoʻlini, kasbini va tamoyillarini boshdan-oyoq qayta koʻrib chiqishga majbur boʻladi. Hikoyaning eng kuchli dramatik nuqtasi – insonning it qiyofasiga aylanishi emas, balki bu tashqi oʻzgarish orqali uning ichki olamida sodir boʻladigan metamorfozadir. Bu yerda it – oddiy hayvon emas, balki vafo, sadoqat, kamtarlik kabi qadimiy va ulugʻ insoniy fazilatlarning timsoli sifatida talqin qilinadi. Rejissor esa jamiyatda obroʻli, yirik kasb egasi sifatida tanilgan boʻlsa-

da, ichki ma'naviyatsizlik, kibr va o'zligini yo'qotganlik holatiga tushgan zamonaviy insonning obrazini aks ettiradi. Asar voqealari rivojida qahramon tashlandiq, unutilgan bog'ga qaytadi – bu bog' faqat joy emas, balki ramziy ma'noda insonning ichki olami, o'zligini anglash makoni sifatida ko'rsatiladi. Aynan shu joyda u o'zining chinakam qiyofasi bilan to'qnashadi: u endi itga aylangan. Ammo bu o'zgarish kamsitish emas, aksincha, yuksalishning, ichki poklanishning belgisi sifatida talqin qilinadi. Inson sifatida e'tiborga molik bo'lmagan, ammo it sifatida sadoqatli, kamtar, begunoh va sof qalbli mavjudotga aylanish – yozuvchining chuqur ma'naviy falsafiy pozitsiyasini ifodalaydi. Qahramon o'zining ilgari ergashgan, ko'z-ko'z qilgan, kibr va maqtanchoqlik bilan to'la hayotidan voz kechadi. U endi jasoratli va halol qarorga keladi: istasa obro'li kasbga, tashqi hashamga qaytishi mumkin edi, biroq u o'zining yangi holatini – hayotining eng oddiy, ammo eng toza bosqichini tanlaydi. Shunday qilib, u hayotdagi haqiqatni, insoniylikni, poklikni it timsoli orqali qayta kashf etadi. Yozuvchi bu asarda zamonaviy insonning ichki bo'shlig'i, ruhan qashshoqlashuvi va ma'naviy yo'qotishlari haqida chuqur o'yga chorlaydi. Qahramon orqali biz haqiqatdan uzoqlashgan, faqat tashqi mavqega suyanadigan jamiyatdagi qiyofalar bilan tanishamiz. Ammo aynan tashlab ketilgan, hayot quvonchlaridan yiroq bir makonda inson o'z qalbiga, o'z mohiyatiga qaytadi. Ushbu hikoyasi – bu oddiy voqea emas, balki insoniylik, sadoqat va ma'naviy poklanish haqida yozilgan chuqur falsafiy asardir. Hikoya bizga shuni anglatadiki, ba'zida inson kibrli hayotdan ko'ra soddaroq, ammo ma'noli yo'lni tanlashi, hayotiy or-nomusini va qalbini qayta kashf etishi kerak bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning hikoyalari bugungi adabiyotimizda muhim badiiy-falsafiy hodisa sanaladi. U o'z ijodi orqali o'zbek nasrini yangi estetik va g'oyaviy yo'nalishga olib chiqdi – bu yo'nalishda inson tafakkuri, ma'naviy inqiroz, axloqiy uyg'onish, tarixiy xotira va shaxsiylik markaziy mavzular sifatida ilgari suriladi. Bu jihatlar yozuvchining nafaqat mahoratini, balki o'zbek adabiyotidagi yangicha tafakkur va badiiy ifoda maktabini yaratganini ko'rsatadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Eshonqul, N. Tobut: hikoyalar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
2. Mamajonov, A. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Qo‘chqorov, Sh. O‘zbek modern nasrida ramz va timsollar tizimi. // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2021, №3.
4. Qodirov, M. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
5. Abdullayeva, Z. Nazar Eshonqul ijodida ruhiy-falsafiy izlanishlar. // “Filologiya masalalari” ilmiy to‘plam, 2022, №2.
6. Saidov, S. O‘zbek nasrida modernizm unsurlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. Xudoyberdiyeva, M. O‘zbek hikoyachiligida ichki monolog va psixologizm. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.